

**O'ZBEKISTON FARMASEVTIKA
BOZORIDA KAPSULA DORI SHAKLLARINI TUTGAN O'RNI.**

Abdulazizov Akbarjon A'zamjon O'g'li

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti, Andijon shahri, Ozbekiston Respublikasi e-mail:

[tel:\(90\)7599407](mailto:tel:(90)7599407)

Annotatsiya Mazkur ilmiy ishda O'zbekiston farmasevtika bozorida kapsula dori shakllarining ulushi, ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda kapsula shaklidagi dori vositalarining afzalliklari — biologik o'zlashtirilishi yuqoriligi, dozalashning aniqligi, bemor uchun qulayligi hamda texnologik ishlab chiqarish jarayonining soddaligi — bozor talabining ortishiga sabab bo'layotgani ko'rsatib berilgan. Respublika bozorida mahalliy va import kapsula preparatlarining nisbati, asosiy terapevtik guruhlardagi kapsula shakllari ulushi, shuningdek, ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil etilgan. So'nggi yillarda mahalliy farmasevtika korxonalarida kapsula ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, gelatin va HPMC kapsula qobig'i ishlab chiqarish yo'nalishining kengayishi, generik kapsula preparatlari ulushining oshishi kabi jarayonlar bozorning muhim tarkibiy o'zgarishlari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston farmasevtika sanoatida kapsula dori shakllarining istiqbolda yanada kengayib borishi, import o'rnini bosish va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kapsula dori shakllari, jelatin kapsulalar, jenerik preparatlar, original preparatlar, bozor ulushi, dori vositalari assortimenti.

Annotation This study analyzes the share, significance, and development trends of capsule dosage forms in the pharmaceutical market of Uzbekistan. The research highlights the key advantages of capsule formulations—including high bioavailability, accurate dosing, patient convenience, and relative simplicity of technological production—which collectively contribute to the growing market demand for this dosage form. The ratio of locally manufactured and imported capsule preparations, the distribution of capsule forms across major therapeutic groups, and their economic efficiency have been examined. In recent years, modernization of capsule production technologies in domestic pharmaceutical enterprises, expansion of gelatin and HPMC capsule shell manufacturing, and the increasing share of generic capsule products have been identified as notable structural changes within the market. The findings indicate that capsule dosage forms are expected to further strengthen their position in Uzbekistan's pharmaceutical sector, contribute to import substitution, and enhance export potential.

Keywords: capsule dosage forms, gelatin capsules, generic medicines, original preparations, market share, pharmaceutical assortment.

Dolzarbliigi: Kapsula lotincha –«capsula» sozidan olingan bolib, qobiq, quti degan ma'noni bildiradi. Sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan kapsulalar dozalarga bolingan, qobiq bilan himoyalangan dori moddasidan tashkil topgan dori shakli bolib, asosan ichish uchun, shuningdek rektal va vaginal usullarda qo'llashga moljallangan. Kapsulalar aniq dozalarga bolingan dori turidir. Ular suyuq, kukunsimon, botqa va donadorshakldagi dorilar bilan to'ldirilgan jelatina qobig'idan iborat. Kapsulalar ichishga hamda yog'on ichakka va vaginal usulda ishlatishga mo'ljallangan bo'ladi. Kapsulalar ikki xil: qopqoqchali qattiq va butun qobig'li yumshoq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtik bozorida dori vositalarining assortimentining tahlilini o'tkazish, bozor sutrukturasida ushbu dori shakli haqida to'liq tasavurni shaklantirishga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan kapsula dori shaklini O'zbekiston farmatsevtika bozorida tutgan o'rni organish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Kapsula dori shaklini O'zbekiston farmatsevtika bozorida tutgan o'rnini tahlilini o'tkazish izlanishimizning maqsadini tashkil etdi.

Usul va uslublari: Qo'yilgan maqsadga erishish uchun 2019 yil №23 sonli, 2020 yil №24 sonli, 2021 yil №25 sonli, 2022 yil №26 sonli, 2023 yil №27 sonli "O'zbekiston Respublikasi dori vositalari va tibbiyot buyumlari davlat reestri"da, keltirilgan ma'lumotlar asosida kapsula shaklidagi dori vositalari assortimentining kontent tahlili o'tkazildi. [2]

Natijalar: kapsula dori shaklini O'zbekiston farmatsevtika bozorida tutgan o'rnini 2018 - 2022 yillarda tahlili shuni ko'rsatadiki, kapsula dori shaklida 2018

yilda 798 ta, 2019 yilda 805 ta, 2020 yilda 815 ta, 2021 yilda 846 ta, 2022 yilga kelib 893 ta dori vositalari ro'yxatdan o'tgan. [4] Shundan mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ro'yxatdan o'tgan dori vositalari 5 yil ichida 218 tadan

252 taga o'zgargan. Ushbu davr mobaynida MDH preparatlarining ro'yxatdan o'tishi biroz kamayib 139 tadan 135 ga o'zgargan xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan tomonidan ro'yxatdan o'tgan dori vositalari 441 savdo nomdan 506 taga oshganini ko'rsatdi. [1]

Dori vositalari va tibbiy buyumlar davlat reestri (№27, 2022 yil) ma'lumotlari asosida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reestrining ushbu nashriga mahalliy va 78 xorijiy davlatlarning 1300 dan ortiq firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan 10634 nomdagi dori vositalari, jumladan 5668 nomdagi xorijiy dori vositalari, MDX davlatlari ishlab chiqaruvchilarining 1864 nomdagi dori vositalari, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning 3102 nomdagi dori vositalari ro'yxati kiritilgan. [5] O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida qo'llanishga ruxsat etilgan kapsula shaklidagi dori vositalarining umumiy miqdori ishlab chiqaruvchi davlatlardan 506 ta (56,7%) xorijiy, 135 tasi (15,1%) MDH davlatlaridan keltirilganligi va 252 ta (28,2%) dori vositalari Respublikamizda ishlab chiqarilishi aniqlandi. Davlat reestri ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida qo'llanishga ruxsat etilgan kapsula

shaklidagi dori vositalari bozordagi umumiy dori shakllari assortimentining 8,02 % tashkil qilishi aniqlandi. [3]

Xulosalar: Kapsula dori shakli va uni O'zbekiston farmatsevtika bozorida tutgan o'rni o'rganildi. Tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida qo'llanishga ruxsat etilgan kapsula shaklidagi dori vositalari assortimentining tarkibiy tuzilishi, ishlab chiqaruvchi davlatlarning ulushlari nomenklaturaning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari baholandi. O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqaruvchi firmalari yangi dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazib, yetakchilik qilayotgani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuradov, A., & Karimova, D. (2022). O'zbekiston farmasevtika sanoatining rivojlanish istiqbollari. Tashkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2023). Dori vositalari davlat reestri. Toshkent.
3. European Medicines Agency. (2021). Guideline on the quality of oral dosage forms. EMA Publications.
4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2022). Farmasevtika klasterlarini rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent.
5. Qodirov, B., & Usmonova, S. (2021). O'zbekiston dorixona bozorida generik preparatlar ulushi va tendensiyalari. Farmatsiya jurnali, 5(2), 33–38.